

O'ZBEKISTON – DINIY BAG'RIKENGLIK YURTI

AKBAROV SHERZODBEK ASQARALI O'G'LI

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Siyosatshunoslik” yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, O'zbekistonning ko'p asrlik diniy bag'rikenglik an'analari, mustaqillik davrida diniy erkinlikka berilgan e'tibor va bu qadriyatlarning mamlakat barqarorligi hamda xalqaro nufuziga ta'siri haqida so'z yuritiladi. O'zbekistonning tarixiy, huquqiy va madaniy jihatlarini orqali bag'rikenglikning ijtimoiy va siyosiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi, tinchlik, millatlararo totuvlik, islom, yahudiylilik, ekstremizmga qarshi kurash, barqarorlik, mustaqillik.*

Аннотация: В данной статье речь пойдет о многовековых традициях религиозной терпимости Узбекистана, о внимании, уделяемом религиозной свободе в период независимости, и о влиянии этих ценностей на стабильность и международный авторитет страны. Через исторические, правовые и культурные аспекты Узбекистана выявлено социальное и политическое значение толерантности.

Ключевые слова: *Узбекистан, религиозная терпимость, свобода совести, мир, межнациональная гармония, ислам, иудаизм, борьба с экстремизмом, стабильность, независимость.*

Annotation: This article talks about the centuries-old traditions of religious tolerance of Uzbekistan, the emphasis on religious freedom during Independence and the influence of these values on the stability of the country and its international prestige. Through the historical, legal and cultural aspects of Uzbekistan, the social and political significance of tolerance is revealed.

Keywords: *Uzbekistan, religious tolerance, freedom of conscience, peace, interethnic harmony, islam, Judaism, fight against extremism, stability,*

independence.

O'zbekiston o'zining boy tarixi davomida diniy bag'rikenglikning noyob an'analarini shakllantirdi. Mamlakat o'z hududida turli dinlar va madaniyatlar uyg'unligini namoyish etuvchi noyob sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan. Zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik va islomning ming yillik uyg'unligi milliy merosning asosi sifatida qaraladi. Bugungi kunda esa mustaqillik davrida ushbu qadriyatlar yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi.

O'zbekistonning diniy bag'rikenglik tarixi qadimgi Zardushtiylik davridan boshlanadi. Zardushtiylik, o'sha davrning asosiy dini bo'lib, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashni asosiy g'oya sifatida ilgari surdi. Bu dinning asosiy tamoyillari o'sha paytdanoq o'zaro hurmat va tinchlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Keyinchalik buddaviylik va nasroniylikning mintaqaga kirib kelishi diniy xilma-xillikni yanada boyitdi. Ayni paytda ularning mintaqada hayotidagi ta'siri Samarqand va Termizda topilgan arxeologik yodgorliklarda namoyon bo'lgan.

VII asrda islom dini mintaqada yetakchi o'rinni egalladi. Islom o'zining adolat, o'zaro hurmat va bag'rikenglik tamoyillari bilan boshqa din vakillarini hurmat qilishga chaqirdi. Islom ilohiyoti asrlar davomida turli din va millat vakillarining tinch-totuv yashashini ta'minlab kelgan.

Amir Temur davrida, bu tamoyillar yangi bosqichga ko'tarildi. Temur o'z davlatining diniy va madaniy xilma-xilligini davlat siyosati darajasiga olib chiqdi. U o'zining "Temur tuzuklari"da barcha din vakillariga hurmat ko'rsatishni shart qilib qo'ygan edi. Temuriylar davri nafaqat ilm-fan va madaniyat, balki diniy bag'rikenglik sohasida ham yangi yuksalish davri bo'ldi[4].

Istiqlol yillarida Vatanimizda yashayotgan turli xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquqlilik va hamjihatlikni mustahkamlashga, uning qonuniy asoslarini yaratishga jiddiy e'tibor qaratildi. Ushbu tamoyillar O'zbekiston Konstitutsiyasi va barcha qonunlarimizda aniq va qat'iy muhrlab qo'yildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 4-moddasida O'zbekiston davlati o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odat va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivoji uchun sharoit yaratishi alohida ko'rsatib

o'tilgan. Konstitutsiyamizning 19-moddasida esa mamlakatimizning barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi belgilab

qo'yildi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023)[3].

Xalqimiz sho'rolar zamonida qatag'on, quvg'inga uchragan ko'plab millat vakillariga boshpana berdi, og'ir damlarda bir burda nonini ular bilan baham ko'rdi. Natijada, koreys, nemis, polyak, yunon, qrim-tatar, turk, tojik va boshqa ko'plab millat vakillari o'zbek elida muqim yashab qolishdi. Ularning zurriyotlari esa shu zaminda tug'ilib-o'sib, shu yerda ta'lim-tarbiya oldilar.

Dunyoda milliy-etnik munosabatlar tobora murakkablashib, hatto eng ilg'or davlatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish, xo'rlash va siqib chiqarish holatlari kuzatilayotgan bir davrda diniy bag'rikenglik, totuvlik, o'zaro hamkorlik masalasi mamlakatlarning tinchligi va taraqqiyoti uchun eng muhim tamoyillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. 1995-yilda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, bu esa turli din vakillarining huquqlarini himoya qilishga asos bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi, bu esa jahon miqyosida O'zbekistonning bag'rikenglik siyosatini tan olishiga olib keldi va albatta bu rezolutsiyasi 50 dan ortiq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. .

Markaziy Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekiston ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlariga ega. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'tamoqda. Mintaqa doirasida har tomonlama manfaatli madaniy

munosabatlar o'rnatish imkoniyati O'zbekiston orqali ochiladi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning transport, energetika, suv tizimi markazida joylashgan bo'lib, aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo'shnilaridan ma'lum darajada ustun turadi: tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral, xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega. Dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlashga qodir bo'lgan O'zbekistonda sanoatning bazaviy va zamonaviy tarmoqlari ham mavjud. O'zbekiston o'zini neft, gaz, rangli materiallar bilan ta'minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ham ega.

Yurtimizning jahonga mashhur boy ma'naviy merosi ham bor, shu tufayli insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'rin egallab, dunyoning madaniy, ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta'sir o'tkazib keladi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishganidan keyingi davrda diniy bag'rikenglik davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning 35-moddasida vijdon erkinligi kafolatlangan[1]. Ushbu huquq har bir fuqaroning diniy e'tiqodini tanlash, amal qilish yoki qilmaslik erkinligini himoya qiladi. 1998-yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun esa turli diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish va ularga teng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan. Bu hujjat O'zbekistonda diniy bag'rikenglik siyosatini huquqiy jihatdan mustahkamladi.

O'zbekiston davlatining diniy siyosatida ikki muhim tamoyil kuzatiladi: diniy erkinlikni ta'minlash va ekstremizmga qarshi kurash. Diniy tashkilotlarning faoliyati huquqiy asoslarda himoya qilinishi bilan birga, ekstremistik g'oyalarga qarshi chora-tadbirlar ham kuchaytirilib borilmoqda. O'zbekistonning diniy bag'rikenglik tamoyillari ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mahalla instituti bu borada muhim rol o'ynaydi. Mahalla tizimi turli millat va din vakillarining birgalikda yashashini ta'minlaydi. Shuningdek, Yoshlarni bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. "Yangi O'zbekiston"

taraqqiyot strategiyasida yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tizim orqali o'zaro hurmat va birdamlik an'analari nafaqat saqlanib qolmoqda, balki yangi avlodga ham o'tkazilmoqda[5].

Madaniyat va san'at sohasida diniy bag'rikenglik an'analari yaqqol aks etadi. Samarqand va Buxorodagi tarixiy obidalar turli madaniyatlarning uyg'unligini ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, Registon maydonidagi madrasa va masjidlar, shuningdek, yahudiy sinagogalari va pravoslav cherkovlari bu xilma-xillikning timsolidir. Diniy bag'rikenglik yosh avlod tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi. Yoshlar orasida milliy va diniy qadriyatlarni targ'ib qilish orqali ekstremistik g'oyalarga qarshi kurash olib borilmoqda. Bu esa jamiyatning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda aholining xilma-xilligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili hisoblanadi. Xususan, mamlakatimiz davlat ta'lim muassasalarida ta'lim yetti tilda olib boriladi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'n ikki tilda ko'rsatuvlar olib boradi, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etiladi. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik qo'mitasida 138 ta milliy-madaniy markaz, shuningdek, 16 konfessiyaga mansub 2300 ga yaqin diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu omillar O'zbekistonning taraqqiy etishiga hissa qo'shishiga chin dildan ishonamiz. Bizning yurtimizda mavjud bo'lgan va milatlararo aloqalarni mustahkamlash va ularni o'rganish bilan shug'ullanadigan markaz borligidan ko'pchilik yurtdoshlarimiz behabar. O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan 1992 yil yanvar oyida ta'sis etilgan "Baynalminal" markazi hanuzgacha o'z faoliyatini olib boradi. Baynalminal atamasining ma'nosi "international" so'zining arab tilidagi tarjimasidir, va milatlararo ma'nosigayam egadir. Mazkur markazning vazifasi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatishdan iborat. Bugungi kunda ushbu madaniyat markazi 140 ga yaqin milliy madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirib kelmoqda.

Bizning buyuk ulamolarimiz ushbu mavzuda ko'plab nutqlar so'zlashgan va doim o'zbek halqining bag'rikengligini va bizning madaniyatimizga va o'zligimizga tubdan singdirilgan ushbu go'zal fazilatlar barcha millat vakillarini lol qoldirib kelgan. Shu jumladan shayx Abdulaziz Mansur 2017 yilgi "O'zbek xalqining bag'rikenglik va olijanoblik fazilatlarining ijtimoiy ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan tadbirida, islom - boshqa dinlarga hurmat g'oyasiga asoslangan bag'rikenglik dini va ular qaysi dinga

mansub bo'lishidan qat'i nazar, barcha odamlarni mehr-oqibatli bo'lishga undayshini ta'kidlab o'tganlar. Bugungi O'zbekistonning diniy bag'rikenglik tamoyillari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanmoqda. Xususan, BMT tomonidan o'tkazilgan "Dinlararo muloqot" konferensiyasi va YUNESKO tomonidan Samarqandning "Bag'rikenglik shahri" sifatida tan olinishi mamlakatning xalqaro nufuzini oshirdi. 2023-yilda "Dinlararo muloqot va bag'rikenglik" xalqaro markazini tashkil etish taklifi ilgari surildi, bu esa dunyo miqyosida diniy totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning bu boradagi tajribasi nafaqat mintaqada, balki global miqyosda ham model sifatida qaralmoqda. Bu mamlakatda shakllangan diniy bag'rikenglik siyosati boshqa davlatlar uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Jamiyatimizdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotgani yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Bosh Qomusimizda mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillari millati, tili, e'tiqodi, ijtimoiy holatidan qat'i nazar, O'zbekiston xalqini tashkil qilishi va qonun oldida tengligi belgilab qo'yildi. Asosiy qonunimizda bunday huquqning aks ettirilishi mamlakatimizda insonlarning vijdon va e'tiqod erkinligi ta'minlanishining asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslarning paydo bo'layotganligi do'stlik va hamjihatlik qo'rg'onining yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari e'tirof etganidek, "O'zbekistonning

boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz— jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir"[2].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
3. Vijdon erkinligi va diniy tashkilot to'g'risida - Lex.uz.
4. Karimov.I., O'zbekiston: Kelajakka qarash. Toshkent, 1999.
5. N. Alimova, Sh. Asqarov, R. Haydarov, Sh. Amirjo'jayev "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar". 2014. – B. 222.
6. Ziyo N., O'zbekiston dinlararo bag'rikenglik. Toshkent, 2022.